

**Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2024-yil uchun mo'ljallangan yillik
ish rejasi ijrosi yuzasidan MA'LUMOT**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro holati
1.	Sport vazirligi rahbariyati tomonidan tashkil etilayotgan sayyor qabullarda qatnashish hamda fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni ko'rib chiqilishida ishtirok etish.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a'zolari	Sport vazirligi rahbariyati tomonidan tashkil etilayotgan sayyor qabullarda qatnashish hamda fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni ko'rib chiqilishida ishtirok etish belgilangan. Mazkur band ijrosi yuzasidan Kengash a'zolari Sport vazirligi tomonidan tashkil etilayotgan sayyor qabullarda zaruratga ko'ra ishtirok etmoqda. Jumladan, joriy yilning 27-yanvar kuni Kengash raisi Sh.Tashmatov boshchiligidagi Ishchi guruh Sirdaryo viloyatiga tashrif buyurib, bir qator sport-ta'lim muassasalari va sport inshootlari holatini o'rganib chiqdi. O'rganish yakunida, sport sohasiga oid jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha sayyor qabul tashkil etildi. Sayyor qabulda bildirilgan murojaatlarning ayrimlari joyida hal etilib, muddat talab qiladigan masalalar qat'iy nazoratga olindi.
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, huzurida o'tkazilgan yig'ilish bayonlarida Sport vazirligiga berilgan	Amaliy chora-tadbirlar	yil yakuni bilan	Jamoatchilik kengashi a'zolari	Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, huzurida o'tkazilgan yig'ilish bayonlarida Sport vazirligiga berilgan topshiriqlar ijrosini vazirlik markaziy apparatida

	topshiriqlar ijrosini vazirlik markaziy apparatida hamda hududiy tuzilmalarda ijro etilishini monitoring qilib, mas'ullar faoliyatiga ob'ektiv baho berib borish.				hamda hududiy tuzilmalarda ijro etilishi doimiy monitoring qilib, mas'ullar faoliyatiga obyektiv baho berib borilmoqda hamda aniqlangan kamchiliklar bo'yicha vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritib borilmoqda.
3.	Sport vazirligi faoliyati bilan bog'liq davlat dasturlari, chora-tadbirlar rejalari va boshqa sohaga oid hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashish, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida takliflar tayyorlash.	Chora-tadbirlar dasturi	belgilangan muddatlarda	Jamoatchilik kengashi a'zolari	Sport vazirligi faoliyati bilan bog'liq davlat dasturlari, chora-tadbirlar rejalari va boshqa sohaga oid hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda Kengash a'zolari ishtirok etib, o'zlarining taklif va fikr-mulohazalarini berib kelmoqda. Bundan tashqari Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-son hamda "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-son Farmonlari ijrosi yuzasidan monitoring tadbirlari o'tkazilib, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan takliflar berildi. Shuningdek, vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlandi.
4.	Sport vazirligi Hay'ati va kengaytirilgan yig'ilishlarda ishtirok etish, unda	Chora-tadbirlar dasturi	har chorakda	Jamoatchilik kengashi a'zolari	Kengash a'zolari Sport vazirligi Hay'ati va kengaytirilgan yig'ilishlarda ishtirok etib, unda ko'rilayotgan masalalardan kelib chiqib taklif va

	ko‘rilayotgan masalalardan kelib chiqib taklif va tavsiyalar kiritib borish.				tavsiyalar kiritib kelmoqda. Xususan, joriy yilning 5-aprel kuni o‘tkazilgan vazirlik hay‘atining navbatdan tashqari 1-son yig‘ilishida Kengash a‘zolari ishtirok etdi.
5.	Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shuningdek fuqarolar bilan ishlash va hamkorlik qilish tizimini yo‘lga qo‘yish.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a‘zolari	Topshiriq ijrosi yuzasidan doimiy ravishda sport federatsiyalari bilan aloqalar o‘rnatilib, belgilangan vazifalarning bajarilishi bo‘yicha hamkorlikda ishlar olib borilayotganligi aytib o‘tildi. Shuningdek, Kengash tomonidan boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari va OAV bilan hamkorlik qilinib, Kengash raisi Sh.Tashmatov va boshqa mas‘ullar ishtirokida joriy yil 3 iyul kuni Dzyudo bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasining Parij-2024 Olimpiadasiga olib borilayotgan tayyorgarlik mavzusida matbuot anjumani o‘tkazildi.
6.	Jamoatchilik Kengashi yig‘ilishlarini tashkil etib borish	Amaliy chora-tadbirlar	har chorakda	Jamoatchilik kengashi a‘zolari	Zaruratga ko‘ra Jamoatchilik kengashi yig‘ilishlari o‘tkazib kelinmoqda.